Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность инвестиционного климата, основные факторы, формирующие инвестиционный климат Узбекистана, группировка факторов, влияющих на инвестиционный климат Узбекистана, SWOT-анализ факторов инвестиционного климата Узбекистана, динамика ВВП и роста инвестиций в Узбекистане, а также крупные инвестиционные проекты, реализуемые за счёт иностранных кредитов под государственную гарантию Республики Узбекистан.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, факторы инвестиционного климата, инвестиционная привлекательность, ВВП, SWOT-анализ, инвестиционные проекты.

KIRISH

Davlat investisiya siyosatini yuritishdan ko'zlanadigan maqsadlardan biri – bu doimiy ravishda xorijiy investorlar uchun qulay investision muhit yaratishdir. Hozirgi kunda O'zbekistonda investorlar uchun shunday qulay muhit yaratilgan [1,2,3]. Investorlarning huquqlarini himoya etish va ularni rag'batlantirish tizimi shular jumlasiga kiradi.

Investision muhit deganda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan investisiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investision muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishi talab etiladi.

Respublikamizda barqaror siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya'ni qulay investisiya muhitining yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo'lishi chet el investisiyalarini jalb qilishning zaruriy shartidir. Investision muhit, investision resurslarni joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi.

Investisiya muhitini baholash jarayonida investor investisiyalashning xatar darajasini qanchalik ekanligini aniklaydi. Investisiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z tadbirkorlik xatarini shunchalik yuqori belgilaydi.

Shu bilan birga, investision faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlarini ifodalovchi investision muhitning quyidagi tashkil etuvchilarning tavsifini keltiramiz. Uning asosiy tashkil etuvchilari sifatida investision faollik va o‘z ichiga investision salohiyat va investision xatar darajasini oluvchi investision jozibadorlik tushunchalarini ko‘rsatish mumkin.

Investision jozibadorlik - mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxona investisiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investision xatar darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir. Investision jozibadorlik investision salohiyat va investision xatar darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investisiyalarning maqsadga muvofiqliligi hamda jozibadorligi, investision xatar darajasini aniqlash mumkin. Investision xatar darajasi investision muhitga bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashib, milliy iqtisodiyotning turli soha hamda tarmoqlarida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari va aholi turmush darajasining oshishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga investisiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi. Iqtisodiyotda investisiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilishning ko'lamli, yo'nalishlari va samaradorligi, bevosita investisiya muhitiga bog'liq. Shu sababli mazkur iqtisodiy atamaning tub mohiyatini o'rganish, yoritish va uni asoslab berishga bo'lgan iqtisodchi olimlarning qarashlari va o'ziga xos yondashuvlari orqali o'zaro ilmiy munozaralar hozirgi kunda ham davom etmoqdaki, bu o'z navbatida, investisiyalarga oid chuqurroq bilimga ega bo'luvchilar e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmadi. Iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminovlar investisiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: “investisiya muhiti bu-xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investisiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejalari, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega” [5]. Shuningdek, mamlakatdagi investisiya jaraenlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siësiy, me'ëriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui investisiya muhitini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asosiy ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investisiya muhiti sarmoyani samarali qo'yish uchun yangi imkoniyatlar va rag'batlarni shakllantiradi. Boshqacha qilib aytganda, qulay investisiya muhiti yaratilishi korxonalar uchun daromadlar o'sishi va xarajatlar hamda risklar kamayishini ta'minlaydi. Natijada, qulay investisiya muhiti yaratilishi tufayli mehnat unumdorligining o'sishi, innovatsiyalarni tatbiq qilish, sifat va mahsulot raqobatbardoshligi, aholi bandligini ko'tarish, turli darajadagi byudjetga soliq to'lovlarini oshirish ta'minlanadi. Har tomonlama qulay investisiya muhiti korxonalar faoliyat samaradorligiga ta'sir etadi, bu esa investisiyalashga xos bo'lgan daromadlar va kapitalning o'sishiga olib keladi.

Investisiya muhiti – murakkab, keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Uning murakkabligi shundan iboratki, investisiya muhiti mamlakat yoki hududda investisiya faoliyatini amalga oshirishga asos bo'ladigan shart-sharoitlarni yuzaga keltiruvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan bog'liq holda shakllanadi. Mamlakat investisiya muhitini hududiy, mahalliy korxonalar, tarmoq va sektorlar investisiya muhitiga ajratish mumkin. Shu bilan birga, «mamlakat investisiya muhiti» bu tushunchalar ichida eng asosiysi hisoblanadi. Investision muhit deganda, mamlakatning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investisiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investision muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishiga bog'liq.

Har tomonlama qulay investisiya muhiti biznes tuzilmalarning faoliyati samaradorligiga ta'sir etadi, bu esa, investitsiyalashga xos bo'lgan daromadlar va kapitalning o'sishiga olib keladi. Investisiya muhiti

investorlarning mamlakatga va davlatning iqtisodiyotiga nisbatan harakatlariga ishonchini oshiradi, uzoq muddatli investisiyalashga yo'l ochadi.

Investitsiyaviy jozibadorlik - mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona investisiyalarning daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investisiya riski darajasi nuqtai nazaridan baholanishi. Investitsiyaviy jozibadorlik investisiya salohiyati va investisiya riski darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi.

Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investisiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investisiya riski darajasini aniqlash mumkin. Investisiya riski darajasi investisiya muhitiga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Respublikada siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya'ni qulay investisiya muhitining yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo'lishi xorijiy investisiyalari jalb qilishning zaruriy shartidir. Investisiya muhiti investisiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larining daromadliligini ta'minlab beradi. Mamlakatning investisiya muhitini shakllantiradigan omillar majmuini 1-jadval orqali ifodalash mumkin.

1-jadval. O'zbekiston investisiya muhitini shakllantiradigan asosiy omillar [5]

Omillar	Mazmuni
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan huquqiy-me'yoriy, jumladan, respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, tegishli nizom va yo'riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xom-ashë resurslari	Mineral, xom ashyo, yoqilg'i-energetika va suv resurslari zahiralari, qishloq xo'jaligi xom ashesini ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi, xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi, aholining savodxonligi
Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy texnik salohiyati	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investisiyalar, shu jumladan, xorijiy investisiyalar hajmlari, investisiya risklari darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ITTKI sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig'imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya va kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimining rivojlanishi holati, transport, kommunikasiya xizmatlari va mexmonxona xo'jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug'urta sohasi tarmog'ining ishonchligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiasion fon, zararli chiqindilar, tabiiy iqlim va uning o'zgarishi, xorijiy fuqarolarning unga moslashish darajasi

Har qanday davlatga investisiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi mazkur mamlakatdagi investisiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi.

Har qaysi investor ma'lum bir mamlakat va uning hududiga investisiya kiritishdan avval o'sha mamlakat va hududning investisiya muhitini baholash, uning jozibadorligini aniqlashga kirishadi. Albatta, bunda yuqorida ko'rib o'tilgan omillar o'rganiladi, tahlil qilinadi va shu asosda investisiya qarorlari qabul qilinadi.

Mamlakatimizdagi investisiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar, asosan, to'rt guruhga bo'linib, ular huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval. O‘zbekistonning investisiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarning guruhlanishi [5]

Ta’sir etuvchi omillar guruhi	Ko‘rinishlari
Siyosiy omillar	Davlatning investisiyalar, xususan, xorijiy investisiyalar bo‘yicha siyosati Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi Mamlakatning xalqaro shartnomalarga qo‘shilganlik darajasi Mamlakatning xalqaro bitimlarga rioya qilishi Siyosiy ahvolning barqarorligi (siyosiy harakatlar, to‘qnashuvlar, qo‘shni davlatlarning osoyishtaligi) Siyosiy hokimiyatning maqsadli harakati Davlat apparatining samarali ish yuritishi Ko‘p partiyaviylik va siyosiy guruhlarining mavqeyi Soliq, valyuta, narx, pul-kredit siyosatining investisiya siyosatiga uyg‘unligi Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog‘lomlashtirish bo‘yicha siyosati ko‘lami
Iqtisodiy omillar	Mamlakatning iqtisodiy ahvoli Inflyasiya darajasi Soliq imtiyozlari Bojxona tartibi Mamlakatning tabiiy va xom ashyo resurslari holati Ishchi kuchi holati va qiymati Ishchi kuchidan foydalanish tartibi Muayyan tovarlar uchun talab va taklif Raqobat va bahoning erkinligi Valyuta konvertasiyasi va milliy valyuta kursining barqarorligi Bank foiz stavkalari
Ijtimoiy omillar	Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari Mamlakatning geografik-hududiy jihatdan joylashuvi (tabiiy ofatlar, dengiz va quruqlik yo‘llari, iqlim sharoiti) Xususiy mulk hamda xorijiy investisiyalarga nisbatan mahalliy aholi munosabati Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi Mamlakatda turli millatlikka nisbatan mavjud munosabat Aholining savodxonlik darajasi Ishchi-mutaxassislar malakasi, ko‘nikmalari va tajribalarining o‘sib borishi va unga intilish Yangiliklar va turli xil ixtirolarga aholining munosabati va ularni qabul qilish darajasi
Huquqiy omillar	Investisiya faoliyati huquqiy asoslarining mustahkamlik darajasi Investisiya faoliyatini bevosita ta’minlovchi huquqiy asosning mustahkamlik darajasi Investisiya faoliyatining me’yoriy asoslari (farmonlar, qarorlar, qonunlar, nizomlar, yo‘riqnomalar va h.k.).

Ta’kidlash joizki, investisiya muhitiga ayrim qonunlarning yoki me’ëriy hujjatlarning to‘laqonli bo‘lmasligi salbiy ta’sir etadi. Bunday kamchiliklarning mavjudligi investorning o‘z istiqbolini belgilash, qo‘yilmaning foydalilik darajasini aniqlash borasidagi qobiliyatini kamaytiradi.

Agar investor investisiya muhitidan qoniqmasa, uning asosiy maqsadi xavf ostida qoladi, ya’ni investisiyalash natijasida olinishi ko‘zda tutilgan daromadning risk darajasi yuqori bo‘ladi. Albatta, bunday sharoitda u investisiyalashni istamaydi. Bu ma’lum omillarning ijobiy yoki salbiy ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Xorijiy investor uchun yuqorida qayd qilingan barcha omillar muhimdir. Shuning uchun ham rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda investisiya loyihalarini baholaydigan, investisiyalar qo‘yilishiga talab bo‘lgan davlatlarning investisiya muhitini o‘rganadigan va aniq xulosa va ma’lumotlarni investorlar uchun taqdim etuvchi maxsus firmalar, tashkilotlar mavjuddir.


3-jadval. Investisiya muhiti omillarining SWOT tahlili [7]

Kuchli tomonlari (strengths)	Kuchsiz tomonlari (weaknesses)
tabiiy geografik joylashuvi; malakali, lekin nisbatan arzon ishchi kuchi; boy resurs bazasi; ishlab chiqarish omillarining nisbatan kam xarajatligi; ichki bozorning xarid qobiliyatining o'sib borayotganligi; investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari tizimi; rivojlangan infratuzilma	geografik joylashuvi (dengizga kirish); ma'muriy to'siqlar; biznes yuritish uchun muhim normativ to'siqlar; ayrim hududlarda investisiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi
Imkoniyalar (opportunities)	Tahdidlar(threats)
iqtisodiy o'sishning yuqori darajasi; investorlar huquqlarini himoya qilishning davlat kafolati; mamlakatda makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlik; tarkibiy islohotlarni amalga oshirish; rivojlanayotgan moliya tizimi; erkin zonalar yaratish.	makroiqtisodiy o'sishning jahon xom ashyo bozorlaridagi vaziyatga nisbatan bog'liqligi; hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi; ba'zi qo'shni mamlakatlarda ijtimoiy keskinliklar tufayli xavfsizlikning yomonlashuvi

O'zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investisiya muhitini yaratish va xorijiy investorlarni respublikaga ko'proq jalb etish maqsadida ularga uchun qator soliq va bojxona imtiyozlari belgilangan. Har bir mamlakatdagi investisiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidir. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investisiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir. O'zbekistondagi investisiya muhitining asosiy xususiyati uning Markaziy Osiyoda eng barqaror mamlakat ekanligidir.

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investisiya muhitini rivojlantirish uchun rag'batlantirish omillarini yanada kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizatsiya usullarini qo'llashda to'la erkinlik berish kerak.

Mamlakatimizda oqilona olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasida 2024 yilda YaIMning qo'shimcha o'sish sur'ati 6,5 foizni, asosiy kapitalga investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'ati esa 27,6 foizni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. YaIM va investitsiyalar hajmining o'sish dinamikasi, foizda [6,7]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investisiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga hamda energiya tejankor va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan investisiya loyihalarini amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, 2019 yilda iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investisiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo‘naltirildi. Jumladan, ushbu davrda umumiy qiymati 7,4 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishi yakunlanib, foydalanishga topshirildi.

Banklarning investisiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investision kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o‘rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investision loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda.


Hozirgi kunda barcha mamlakatlarda xorijiy valyutalarni jalb etish va valyuta tushumini ko‘paytirish, milliy valyuta qadrini oshirish eng dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Xorijiy investisiyalar mamlakatga xorijiy valyutalarni jalb etish va mamlakatda valyuta barqarorligini ta‘minlashda muhim dastaklaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz “...Valyuta bozorini isloh qilishga qarshi bo‘lgan ayrim “ekspertlar”ning ikkilanishi va “maslahat”lariga qaramasdan, biz qisqa muddatda xalqaro standartlar asosida valyutani liberallashtirish jarayonini boshladik. Lekin biz yaxshi tushunamizki, bu ish ushbu sohadagi islohotlarning boshlanishi, xolos.

Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariga to‘liq xizmat qilishi, investisiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim” [4] deb alohida ta‘kidlab o‘tganlar.


Mamlakat iqtisodiyotiga chet el valyutalarini jalb etishda aksariyat davlatlar eksport salohiyatini oshirishga katta urg‘u beradi, aslida xorijiy investisiyalarni jalb etish orqali ham katta miqdorda valyuta tushumini ta‘minlash mumkin bo‘ladi. Valyuta tushumini ta‘minlashda xorijiy investisiyalarning eksportdan afzallik tomoni shundaki, eksport qilish orqali valyuta tushumiga ega bo‘linadi, biroq ushbu valyuta ekvivalentidagi mahsulotlar chetga olib chiqib ketiladi. Xorijiy investisiyalarni jalb etish orqali esa chet el valyutasi yoki valyutaga keltiriladigan asbob-uskuna va mahsulotlar milliy iqtisodiyotga kiritiladi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi.

Asosiy kapitalga investisiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. So‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investisiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 martaga ko‘payib, o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.




2-rasm. Asosiy kapitalga investisiyalarning hajmi dinamikasi (yanvar-dekabr oylari uchun, trln so‘m) [6,7]

So‘nggi besh yil ichida o‘shish sur‘atlarini ko‘radigan bo‘lsak, ular o‘shib borish tendensiyasiga ega: 2021-2022 yillarda 102,9-100,2 % o‘shish kuzatilgan bo‘lsa, so‘nggi ikki yilda yuqori o‘shish sur‘atlari – 123,4 va 127,6 % kuzatilmog‘da.



3-rasm. Asosiy kapitalga investisiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi (yanvar-dekabr oylari uchun, % da) [6,7]

Asosiy kapitalga investisiyalarning tarkibida 75,9 % yoki 374,7 trln so'm investisiyalar jalb qilingan mablag'lar (Respublika byudjeti, maqsadli jamg'armalar, xorijiy investisiya va kreditlar, mahaliy banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari) hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,1 % yoki 119,0 trln so'm moliyalashtirildi.




4-rasm. Asosiy kapitalga investisiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi (2024 yilning yanvar-dekabr oylari uchun, % da) [6,7]

2024-yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha investisiya statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha 3 761 ta yirik korxona va 2 666 ta kichik biznes subyektlari tomonidan hisobotlar qabul qilindi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida jami investisiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investisiyalarning ulushi, 2023-yilga nisbatan 3,5 % punktga kamayib, 10,5 % ni yoki 51,9 trln so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 441,8 trln so'm yoki jami investisiyalarning 89,5 % i o'zlashtirilib, 2023-yilga nisbatan 3,5 % punktga ko'paydi.

Statistik tahlilni o'tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga investisiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha.



5-rasm. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investisiyalar tarkibi (2024 yilning yanvar-dekabr oylari uchun, % da) [6,7]

Oxirgi 5 yilga nazar tashlasak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilayotgan asosiy kapitalga investisiyalarning ulushi kamayib borayotganini ko'rish mumkin.



6-rasm. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investisiyalarning ulushlari dinamikasi (yanvar-dekabr oylari uchun, % da) [6,7]

2024-yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 23,6 trln so'm investisiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilga nisbatan 97,4 % ni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi 4,8 % darajasida qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan amalga oshirilgan yirik investisiya loyihalariga quyidagilarni keltirish mumkin (7-rasm).

•Qashqadaryo viloyatida Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasini umumiy quvvati 900 MVt dan kam bo'lmagan navbatdagi ikki dona bug'- gaz qurilmasini qurish bilan kengaytirish

•Navoiy viloyatida Navoiy issiqlik elektr stansiyasida elektr energiyasi 600 MVt va issiqlik energiyasi 200 GKal quvvatli uchinchi bug'-gaz qurilmasini qurish

•O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish

•Toshkent shahrida olimpiya shaharchasini barpo etish

7-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan amalga oshirilgan yirik investisiya loyihalari (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida) [6,7]

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investisiyalar hajmi 3,6 trln so'mni (dollar ekvivalentida 280,6 mln AQSh dollari) va jami investisiyalardagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Respublika byudjetidan moliyalash- tiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan investisiyalar hajmi 22,8 trln so'mni yoki jami investisiyalarning 4,6 % ini tashkil etdi. Shuningdek, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan investisiyalar hajmi 1,9 trln so'mni yoki jami investisiyalar 0,4 % ini tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investisiya muhiti – murakkab, keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Uning murakkabligi shundan iboratki, investisiya muhiti mamlakat yoki hududda investisiya faoliyatini amalga oshirishga asos bo'ladigan shart-sharoitlarni yuzaga keltiruvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan bog'liq holda shakllanadi. Mamlakat investisiya muhitini hududiy, mahalliy korxonalar, tarmoq va sektorlar investisiya muhitiga ajratish mumkin. Shu bilan birga, «mamlakat investisiya muhiti» bu tushunchalar ichida eng asosiysi hisoblanadi. Investision muhit deganda, mamlakatning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investisiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investision muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishiga bog'liq.

Har tomonlama qulay investisiya muhiti biznes tuzilmalarning faoliyati samaradorligiga ta'sir etadi, bu esa, investitsiyalashga xos bo'lgan daromadlar va kapitalning o'shishiga olib keladi. Investisiya muhiti investorlarning mamlakatga va davlatning iqtisodiyotiga nisbatan harakatlariga ishonchini oshiradi, uzoq muddatli investitsiyalashga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Chet el investisiyalari to'g'risida»gi Qonuni.;
2. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni.;
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi «To'g'ridan – to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
4. Prezident ilk bor parlamentga Murojaatnoma taqdim etdi. 22.12.2017. -<https://president.uz/uz/lists/view/1370>
5. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investisiyalar. - T.: «Moliya». - 2010. 177, 282, 283, 328-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari
7. Muallif ishlanmasi



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI